

O‘ZBEK MAROSIM NOMLARI TADQIQI VA TAHLILI

Ravshanova Feruza Murodullayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

ravshanovaf24@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek marosimlarini kimlar tomonidan o‘rganganligi hamda marosim nomlariga oid ma’lumotlar berildi. Bir xil ma’no ostida o‘tkaziladigan marosim nomlarini, turli nomlar bilan nomlanishining sababi etnolingvistik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Etnolingvistika, madaniyat, marosim, an‘ana, etnografik*

ABSTRACT

The article provided information about who studied uzbek rituals and the names of the rituals. Ethnolinguistic analysis of the reason why the names of ceremonies with the same meaning are called by different names.

Keywords: *Ethnolinguistic, culture, ceremony, tradition, ethnographic.*

Kirish: O‘zbek marosim nomlarini tadqiq va tahlil qilishdan avval marosim so‘ziga e’tiborimizni qaratdik. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida aytilmagan bo‘lsa-da, asarda tod – (tud-: totundi “to‘yindi”, todg‘urdi “to‘yg‘izdi”), toz – (tuz-: tozdi “to‘ydi”, tozg‘urdachi “to‘ydiruvchi”) kabi o‘zaklardan, asoslardan yasalgan 18 ta leksema qayd etilgan¹. A.Jo‘raboyev bunga asoslanib, “to‘y so‘zi to‘ymoq fe‘lining o‘zagi to‘ydan hosil bo‘lgan, bu so‘z aslida to‘ymoq ma’nosini anglatuvchi tod> toz> doi> doj ning eng so‘nggi fonetik varianti hisoblanadi²”, deb yozadi. To‘y marosimlari haqida Bahodir Sarimsoqov ham quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Marosim inson moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakat, bezak (dekoratsiya) va tekstga ega bo‘lgan hayotiy “sahna” asaridir. Shu boisdan dunyoda o‘z marosimlariga ega bo‘lmagan birorta ham xalq yo‘q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyot etapidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni

¹ Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент: ЎзФан, 1960. – Б. 63.

² Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй-маросим номлари. – Тошкент, 1971. 52 б

o'zida nisbatan to'la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Shuning uchun ham muayyan etnik birlikka xos asosiy xususiyatlarning etnografik mezon sifatida marosim hamma vaqt tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalarini yanada chuqur singdirish kabi vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Mustaqillik yillarida S.Davlatov², N.Qurbonboyeva³, L.Xudayqulova⁴, F.Hayitova⁵, Sh.Nurullayeva⁶lar tomonidan to'y marosimlari bilan bog'liq so'zlar, to'ylarning qay tartibda o'tishi, aytishuvlar, etnografizmlarga oid ma'lumot berilgan. Bu tadqiqotlarda to'y-marosim nomlarini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etish haqidagi ayrim qarashlar mavjud bo'lsa-da, to'y marosimlarining etnolingvistik jihati o'rganilmagan.

"Chilla to'yi"ni hozir ham viloyatlarda uchratish mumkin, ular "*Chilla quvdi*", "*Chilla guruzon*" nomlari bilan atalib, unda 40 kunlik chilla saqlagan kelin-kuyov yoki chaqaloq chillasi chiqqandan so'ng nishonlanadi. Chillasi chiqqan kunlari mehmondorchilikka borishadi, chillasi chiqqanlarga sarpolar beriladi. Chilla kasallikdan, har xil nazarlardan holi bo'lganliklari uchun qilinadigan marosimlardan biridir. O'zbek marosimlari etnosiga nazar soladigan bo'lsak, har bir marosim hozirda ham mavjud bo'lib, biroq o'zgargan, ammo ma'lum bir udumlarini saqlab qolgan holda uchratish mumkin. Bugungi kunda "*Chilla quvdi*" nomi bilan nishonlab kelinayotgan marosim nomiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, unda chillani uyda hech qayerga chiqmay saqlashadi, shu sababli chillaning uydan quvib chiqarmoq ma'nosiga ko'proq ahamiyat qaratilgan bo'lib, marosim nomini "*Chilla quvdi*" deb atab qo'yishgan.

H.Ismoilovning "O'zbek to'ylari" nomli kitobida chilla to'yi quyidagicha ta'riflanadi: kuyov-kelinning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yaqin kishilari hamda qo'ni-qo'shnilari to'planishib, doyamomo, enaga va tug'dirishda qatnashgan boshqa ayollar hamkorligida mazkur sanani nishonlaganlar. Bu esa xalqda "*Chilla to'yi*" nomi bilan yuritilgan. Qirq kunlik og'ir va xavfli deb sanalgan palladan chiqqanlari sharafiga, bola o'zini o'nqlab olgani, ko'zlanmay, yomon ins-jinslarning ta'siriga

¹ Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent, 1986. 148 b

² Davlatov S. Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosimlari folklori. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1996.

³ Qurbonboyeva N. Xorazm to'y qo'shiqlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1998.

⁴ Xudayqulova L. Surxondaryo to'y-marosim qo'shiqlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2011.

⁵ Hayitova F. Nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik talqini. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1998.

⁶ Nurillayeva Sh. Turkiston qarluq tip shevalarida to'y marosimi nomlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2001.

berilmay, yomon ko‘zlardan hamda suq, kina, nazar-nafasdan eson-omon chiqqani ota-onalar uchun, atrofdagilar uchun ham sevinchli voqea bo‘lgani sababli uni to‘y-O‘zbek marosimlariga oid ishlardan biri S.Davlatovning “Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘y marosim nomlari”, A.Jo‘raboyevning “O‘zbek tilida to‘y marosim nomlari”, H.Ismoilovning “O‘zbek to‘ylari” kabi adabiyotlarda marosimlarga oid ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, S.Davlatovning “Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘y-tantana bilan nishonlaganlar. Bu esa onalar qalbida ishonch uyg‘otgan, ularning farzand dog‘iga kuymasligiga katta umid baxsh etgan. Chunki onaxonlarning aytishlaricha, bolalarning ko‘pchiligi chilla davrida xaloq bo‘lar ekan. Shu bois chilla davrini eng xavfli, bolaga, onaga og‘ir damlar deb sanalib kelgan¹. Demak, H.Ismoilovning “O‘zbek to‘ylari” nomli kitobida berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, biz bugungi kunda “*Chilla quvdi*”, “*Chilla guruzon*” nomi bilan nishonlayotgan marosim mazmun jihatdan bir xil, ammo H.Ismoilov tahlilida “*Chilla to‘yi*” nomini chilla vaqtdan eson-omon chiqqanliklari uchun shu nom bilan atalgan bo‘lsa, bugungi kunda chillaning qanday chiqqaniga emas, balki chilla tugashiga ahamiyat qaratilib, “*Chilla quvdi*” nomi ostida nishonlanib kelinmoqda. Demak, bu marosim nomi “*Chilla quvdi*” deb nomlanishi etnolingvistika, marosim nomining o‘zgarishiga sabab uning etnosidir. Nima uchun etnosi deyilmoqda? Sababi har bir nom kelib chiqish sababiga ko‘ra nomlanadi. Yuqorida aytilganidek, chillaning tugashiga ahamiyat qaratilmoqda. Chilla davri tugagandan so‘ng ona va bolaga ostona xatlab chiqishga ruhsat berilgan. Chilla davrini uydan chiqmagan holda chilla saqlanilgan. Chillaning tugashini *chilla quvdi* deyilishi esa chillani tugatib ostonadan chiqishi mumkinligi nazarda tutilgan holda marosim nomi qo‘llanilgan.

Natijalar: “*Tug‘ish to‘yi*” marosimi bir qator joylarda qayd etilgan, lekin eng jozibali o‘tkazilgan to‘ylar Xorazm viloyatining qator qishloqlarida o‘tkazilgan. Xususan, yuqorida aytganimizdek, ushbu to‘y uchun asosiy bahona oilada farzand tug‘ilgan kunning birinchi daqiqalarida, qarindosh-urug‘lar, yaqin kishilar, qo‘ni-qo‘shnilarning to‘planishi, ularning “tug‘uliq” bo‘lgan joyga kelishlari va muborakbod qilishlari bilan boshlanadi. Yangi farzand ko‘rgan ota kelgan mehmonlarni xursandchilik bilan kutib oladi va ularning “tug‘uliq” tabriklarini qabul qiladi. Bu esa oilada to‘yning boshlanib ketishiga bosh omil bo‘ladi.

Mazkur to‘y Xorazmning janubiy tumanlarida hamon uchrab turadigan kicgik to‘ylardan hisoblanadi. Azaliy udumga ko‘ra, har bir kirib keladigan mehmon yangi farzand ko‘rgan ayol uchun o‘zi bilan birga tuxum yoki tuxum qovurdoq olib kelgan, ayrim hollarda esa suvda pishirilgan tuxumning o‘zi olib kelingan. Shuningdek, turli shirinliklar, qand-qurs, meva-chevalar olib kelingan. Ayrim qishloqlarda esa shu kuni

¹ Ismoilov H. O‘zbek to‘ylari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 29.

yangi chaqaloqni ko'rgani kelganlar unga atab suyunchi tariqasida pul berganlar. Ushbu to'yning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, tuxumni mayda to'g'ralgan go'sht bilan qovurib, taom tayyorlashdir¹.

Yuqoridagi ma'lumotda "*Tug'ulish to'yi*" nomini bugungi kunda Toshkent shahrida "*Qovurdoq*", ya'ni taom nomi bilan atalib, chaqaloqning uyga keladigan kuni kichikroq to'y ko'rinishida o'tkaziladi. Bu marosimda ham chaqaloqqa sarpolar va kerakli narsalar olinadi. Bu marosim nomi o'zgarishiga sabab, biz chaqaloq keladigan kuni aynan shu taomga e'tibor qaratamiz va mazkur nom bu marosim uchun mos deb o'ylaymiz. Bu taom marosimning asosiy taomlaridan biri hisoblanadi (qovurdoqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi). H. Ismoilovning bergan ma'lumotlarida ko'ra, bu marosim Xorazm viloyatida ko'proq nishonlanadi deyilgan. Bugungi kunda Toshkent shahrida va boshqa viloyatlarda ham keng miqyosda nishonlab kelinmoqda. Yangi tug'ilgan chaqaloqni karnay-surnaylar sadosida kutib olishadi. Chaqaloq keladigan xonadonning har bir a'zosiga sarpolar qilinadi. Marosimga taklif qilinganlar ham ko'rmana uchun kiyimlar yoki pul berishadi.

G.P. Snesarevning yozishicha, "*Tug'ish to'yi*"da farzand ko'rgan onaning birinchi taomi albatta tovuq tuxumi bo'lishi shart hisoblangan. Chunki uning ta'kidlashicha, tuxum hosildorlik ramzi, pusht qoldirish belgisi sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan². Yuqoridagi ma'lumotga ko'ra, bizda "*Qovurdoq*" taomi tuxumsiz bo'lmasligining asosiy sababi ham shundadir.

"*Beshik to'yi*" har yangi oila qurayotgan yoshlarga niyat bildirilayotganda, beshik to'ylarida qatnashish nasib qilsin, kelasi yil beshik to'ylar qilishsin kabi niyatlar bildiriladi. Qadimda beshik to'yni bosh farzandga qilishgan yoki bir necha yil farzandi bo'lmagan, saqlab qololmagan oilalarda beshik to'yi qilingan. Bugungi kunda oilada tug'ilgan birinchi bolaga ona tomondagilardan beshik qilinadi. Masalan, Toshkentda bosh farzandga beshik to'y, keyingi farzandlarga esa qovurdoq qilinadi.

To'yda faqat ayollar qatnashgan. Beshik to'yda bo'g'irsoq pishirib kelingan, Beshik to'yda qizning onasi tomonidan chaqaloqqa, qudalariga, kuyovga, qiziga sarpolar qilingan, shuningdek, beshik to'y uchun shirinliklar, osh qilish uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarni yuborilgan.

Xorazm viloyatining janubiy tumanlarida ham mavjud bo'lib, beshik to'yiga xalfalar ham taklif etilgan. Qiziqarli joyi shundaki, to'y sohiblarining iqtisodiy mavqeyiga ko'ra, beshik to'yiga qatnashadigan xalfalar bir kishidan besh-o'n kishigacha borgan. Ular beshik to'ylarida o'zbek xalq epik dostonlaridan parchalar o'qigan, turli hikoya, rivoyatlar aytib bergan ekan.

¹ Ismoilov H. O'zbek to'ylari. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 10.

² Снесаров Г.П. Реликты домусульманских веравоний и обрядов у узбеков Хорезма. – М., 1996. – С. 241.

Xalfalar charchab, bir maromga kelganlaridan so‘ng o‘rtaga choyxo‘rlik, meva-cheva, qand-qurs bilan tamaddi qilib olingan. Bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng to‘plangan mehmonlarga “Kelin palov” nomi bilan osh tortilgan¹.

Xalqimizda orzu-niyatlar bilan o‘tkaziladigan “Beshik to‘yi” haqida M.Sattorning “O‘zbek udumlari” kitobida ham ma‘lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, beshik to‘y (beshik soldi)da yangi bo‘shangan, beshikda bolasini emizib turgan onaga non tishlatib, bu non bolalarga olib qochdirilgan. Beshik narisiga, ayvonga shirinliklar, turli meva qoqilari sochilib, bolalarga talashib-tortishib tanovul qildirilgan. Bu bilan yangi tug‘ilgan bolaning umri shirin, mo‘l bo‘lib, uzoq yillar hayotda sochilgan rizq-ro‘zini yig‘ib-terib olib yursin, degan ma‘no anglashilgan. Beshik to‘yida bolaning chillasi chiqib, uni beshikka belash marosimida ikki turmush ko‘rgan, ajralgan xotinlar ham irim qilib qo‘yilmagan. Beshikka muqaddas hisoblangan daraxt tug‘dona shoxi kesib olib, osib qo‘yilgan. Bolaning beshik yostig‘i ostiga pichoq, non parchasi qo‘yilgan. Isiriq tutatilib, tumor osilgan².

Muhokama: O‘zbek xalqining o‘zbek millati bo‘lguniga qadar bo‘lgan davr ichida qanchadan-qancha urf-odatlar, udumlar, an‘analar va ularga bog‘liq bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishi, qolaversa, udumlar ham bora-bora o‘zgarishlarga uchrashi, nomlari o‘zgarishi, ulardagi ma‘no va mazmunning torayishi kabi holatlar ham kuzatilib, bu jarayon ijtimoiy hayot bilan bog‘liq sanaladi.

Har bir xalq umumiy belgilarga ega bo‘lganidek, o‘ziga xos jihatlari ham mavjud bo‘lib, bunday o‘ziga xosliklar muayyan xalqning urf-odatlarini hisoblanadi. Urf-odatlar ma‘lum bir etnosning o‘ziga xos muhim jihatlari ifoda etadi. Etnos atamasi dastlab yunon tilidagi manbalarda yunon bo‘lmagan xalqlarga nisbatan qo‘llanilgan. Aynan shu ma‘noda mazkur ibora Rim madaniyati va lotin tilida ham uchraydi. XVIII asrning oxiriga qadar etnos atamasi nihoyatda chegaralangan holda qo‘llanilgan. Faqat XIX asrdan e‘tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda “xalq” (народ) ma‘nosida qo‘llanila boshlangan.

Xulosa: Hozirgi zamon tilshunosligida har bir xalq va ular tilining o‘zaro muloqot hamda munosabatlar jarayonida madaniy makonga ega ekanligi, ma‘naviy va ma‘rifiy jarayonlarda shakllanib, rivojlangani, aql-idrok manbayi bo‘lishi, milliy-madaniy an‘analarga asoslanganligi, shu bilan birga madaniy fondning birlamchi hamda asosiy element ekanligi, ya‘ni milliy o‘ziga xoslikni aks ettirgan lug‘aviy birliklar asosan tilshunoslik fanining lingvokulturologik, etnosemantik, antropolingvistik va etnolingvistik yo‘nalishlarida tadqiq etilmoqda. Shu tarzda tilshunoslik fanining rivojlanishi va taraqqiyoti tufayli etnoslarning moddiy hamda ma‘naviy madaniyatini ijtimoiy munosabatlar asosida o‘rganish natijasida umummilliy (etnik), hududiy va

¹ Ismoilov H. O‘zbek to‘ylari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 23.

² Mahmud S. O‘zbek udumlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 108.

dialektal tiplarga bo‘lib, ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslarda tavsif va tahlil etib, tasniflash imkoni yuzaga keldi.

Har bir marosimlarning o‘ziga xos milliy ma’nosi mavjud bo‘lib, bu marosimlarni qadr-qimmatini oshirish va marosimlarning o‘tkazilishidagi o‘zbek xalqining mehr - muhabbati, oila mustahkamligi yo‘lida, farzandga bo‘lgan e’tiborning muhim ahamiyatga ega ekanligi, marosim nomlaridan o‘z ifodasini topadi.

Marosim nomlarining etnolingvistik tahlili jarayonida hududlarda marosim o‘tkazilishi jihatdan, ya’ni ma’nosi bir xilligi, ammo ulardagi nomlarning farqlanishi, yashash hududi millatlar aralashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, etnos ham muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda o‘tkazib kelinayotgan marosim nomlari marosimning etnos ma’nosi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmud S. O‘zbek udumlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – 101 b.
2. Primova A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Urganch, 2019. – 100 b.
3. Davlatov S. Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘y marosimlari folklori. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1996.
4. Jo‘raboyev A. O‘zbek tilida to‘y marosim nomlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1971.
5. Nurillayeva Sh. Turkiston qarluq tip shevalarida to‘y-marosimi nomlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2001.
6. Одилов Ё. Тил ва менталитет // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. 3-сон, 44-б.
7. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 210 b.
8. E.A.Mamatov. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – 98 b.